



ADVOKAT MAQOMINI TO'XTATIB TURISH: HUQUQIY MEXANIZMLAR VA AMALIYOT

Maxmasoliyev Nuriddin Alisher o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti, Magistratura bosqichi
talabasi

E-mail: maxmasoliyevn@gmail.com, Tel: +99893 434 71 22

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15728237>

ARTICLE INFO

Received: 11th June 2025

Accepted: 15th June 2025

Published: 24th June 2025

KEYWORDS

advokat maqomi, to'xtatib turish, malaka komissiyasi, advokatura, yuridik yordam, huquq himoyasi.

ABSTRACT

Mazkur ilmiy maqolada O'zbekiston Respublikasida advokat maqomini to'xtatib turish tartibi, uning huquqiy asoslari va amalga oshirish mexanizmlari tahlil qilingan. Advokatura institutining rivojida muhim ahamiyat kasb etuvchi bu masala milliy qonunchilik va xorijiy tajriba orqali ko'rib chiqilgan. Shu bilan birga, malaka komissiyalari faoliyati, to'xtatib turish asoslari va ushbu jarayonning advokatlik faoliyatiga ta'siri bayon etilgan.

Advokatura instituti demokratik huquqiy davlat qurishda muhim o'rin tutadi. Advokatlik faoliyatining samaradorligi ko'p jihatdan advokatlar maqomining mustahkamligi va ularning kasb faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy mexanizmlarning mukammalligi bilan belgilanadi. Shu maqsadda advokat maqomini to'xtatib turish instituti dolzarb ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasida advokatura sohasini isloh qilish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Jumladan, Prezidentning 2019-yil 20-apreldagi "Advokatura institutini yanada takomillashtirish va advokatlar maqomini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5707-son farmoni advokatlik faoliyatini yangi bosqichga ko'tarishga qaratilgan muhim hujjat hisoblanadi.

Advokat maqomini to'xtatib turish malaka komissiyalarining qarori bilan quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

1. Advokatning arizasi bilan murojaat qilishi asosida;
2. Advokatda kasb faoliyati bilan uzluksiz shug'ullanishiga to'sqinlik qiladigan holat yuzaga kelganda;
3. Advokatning kasb talablariga rioya qilmasligi aniqlanganda;
4. Huquq-tartib organlari tomonidan tergov choralari qo'llanilganda.

Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatadigan advokatlarni jalb etish masalasida advokatning maqomi to'xtatib turilganda yoki advokatning advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyasining amal qilishi tugatilganda muayyan cheklovlar belgilanadi.

Malaka komissiyasining litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish yoki tugatish to'g'risidagi qarori, u qabul qilingan kunda hududiy boshqarma tomonidan tegishli adliya organiga yozma shaklda ma'lum qilinadi, adliya organi o'sha kunning o'zida malaka komissiyasining qarori asosida advokat maqomini to'xtatib turish va tugatish to'g'risida buyruq chiqaradi. Malaka komissiyalari O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining hududiy boshqarmalari

huzurida faoliyat yuritadi va advokatlarning kasb faoliyatini nazorat qilishda muhim funktsiyalarni bajaradi.

Ularning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Advokatlarning kasb malakasini baholash;
- Intizomiy qoidabuzarliklarni ko'rib chiqish;
- Advokat maqomini to'xtatib turish va tugatish masalalarini hal qilish;
- Advokatlik litsenziyalari bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqish.

Advokat maqomini to'xtatib turish quyidagi turlarga bo'linadi:

Ixtiyoriy to'xtatib turish. Advokatning arizasiga binoan bunday ozod qilish muddatiga to'xtatib turilishi mumkin - bu advokatning shaxsiy holatlari (kasallik, oilaviy holatlar, ta'lim olish va h.k.) tufayli vaqtinchalik faoliyatni to'xtatishi.

Majburiy to'xtatib turish. Bu holatda malaka komissiyasi tomonidan advokatning kasb etik qoidalarni buzishi yoki boshqa obyektiv sabablar asosida maqom to'xtatib turiladi.

Advokat maqomi uch oydan oshmaydigan muddatda amalga oshiriladigan boshqa faoliyat turlari bilan bog'liq hollarda ham to'xtatib turish qo'llanilishi mumkin. Taniqli huquqshunos professor A.T. Xo'jaev advokatura sohasidagi tadqiqotlarida ta'kidlaydiki, "advokat maqomini to'xtatib turish instituti advokatlik faoliyatining sifatini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Biroq, bu mexanizm advokatning huquq va manfaatlarini himoya qiluvchi kafolatlar bilan muvozanatlashgan bo'lishi zarur". Yuridik fanlar doktori M.R. Aripov o'z tadqiqotlarida qayd etishicha, "advokatlik maqomini to'xtatib turish jarayonida shaffoflik va adolatlilik prinsiplariga rioya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Malaka komissiyalarining qarorlarini ko'chirish huquqiga ega bo'lishi ham zarur".

Dunyo mamlakatlarida advokat maqomini to'xtatib turish tartibi turlicha tartibga solingan. Amerika Qo'shma Shtatlarida har bir shtat o'zining advokatlar palatasiga ega va advokatlik litsenziyalarini beruvchi tashkilotlar nazorat qiluvchi alohida organlar mavjud. Advokatlar etik qoidalarni buzganlik uchun ogohlantirish, jarima, maqomni to'xtatib turish yoki butunlay tugatish kabi jazolar qo'llaniladi. Germaniyada esa advokatlar palatasi (Rechtsanwaltskammer) advokatlarning faoliyatini nazorat qiladi. Intizomiy javobgarlik choralari og'ir intizomiy qoidabuzarlik uchun maqomni to'xtatib turishni ham o'z ichiga oladi. Fransiyada advokatlar kengashi (Conseil de l'Ordre) tomonidan intizomiy ish yuritish amalga oshiriladi. Advokat maqomini to'xtatib turish vaqtinchalik chora sifatida qo'llaniladi.

Advokat maqomini to'xtatib turish amaliyotida quyidagi muammolar mavjud: ba'zi hollarda malaka komissiyalarining qaror qabul qilishi juda uzoq davom etadi; malaka komissiyasi qarorlariga ko'chirish tartibi aniq belgilanmagan; qaror qabul qilish jarayoni hamisha ochiq bo'lmaydi; to'xtatib turilgan advokatlar faoliyatini kuzatish tizimi mukammal emas.

Advokat maqomini to'xtatib turish instituti advokatura tizimining muhim qismi bo'lib, u advokatlik faoliyatining sifatini ta'minlashga xizmat qiladi. Biroq, bu mexanizmning samarali ishlashi uchun qonunchilikni yanada takomillashtirish, jarayonlarni raqamlashtirish va shaffoflikni oshirish zarur. O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasiga advokatlarni advokatura sohasiga qabul qilish, malakasini oshirish, shuningdek, ularga nisbatan intizomiy ish qo'zg'atish, advokat maqomini tugatish va to'xtatish bilan bog'liq masalalar bo'yicha alohida huquq va vakolatlalar berish bo'rasidagi islohot amalga oshirilmoqda.

Kelgusida advokatlik institutini yanada mustahkamlash uchun xalqaro tajribani o'rganish va milliy qonunchilikni zamon talablariga moslashtirish davom etishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Advokatura to'g'risida"gi 1996-yil 27-dekabrda 349-I-son Qonuni

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-apreldagi "Advokatura institutini yanada takomillashtirish va advokatlar maqomini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5707-son farmoni
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 21-noyabrdagi "Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatadigan advokatlarni jalb etish va ularga haq to'lash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 774-son qarori
4. Adliya vazirining 2009-yil 14-martdagi "O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi hududiy boshqarmalari huzuridagi malaka komissiyalari to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi 69-mx-son buyrug'i
5. Xo'jaev A.T. Advokatura huquqi. Darslik. – T.: "TDYUI", 2020. – 312 b.
6. Aripov M.R. Advokatlik faoliyatining huquqiy asoslari. Monografiya. – T.: "Adolat", 2021. – 245 b.
7. Rustambaev M.X., Musaev A.Z. O'zbekistonda advokatura institutining rivojlanishi. – T.: "O'qituvchi", 2019. – 189 b.

